

SHHTGA A'ZO DAVLATLAR MINTAQAVIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA: O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK

Mahkamov Ikrom

UzMu 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqadagi tinchlikni saqlashdagi asosiy tayanchlardan biri ShHT va unga a'zo davlatlar muammolarni hal qilishdagi hamkorlik va ta'siri haqida s o'z boradi.*

Kalit so'zlar. *ShHT, Shanxay, tinchlik, tashkilot, rivojlanish, O'zbekiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston.*

Rivojlanayotgan dunyoda tashqi aloqa va yaqin qo'shnihilik munosabatlari o'rnatilishi katta ahamiyatga ega. Qo'shni davlatlar bilan tajriba almashinish yaqin qo'shnihilik aloqalari, diplomatik, iqtisodiy tomonlama aloqada o'rnatilishi davlatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shu kabi qo'shnihilik aloqalarini o'zida jo qilgan tashkilotlardan biri sifatida Shanxay hamkorlik tashkilotini keltirsak bo'ladi. Shanxay hamkorlik tashkiloti - tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan davlatlararo xalqaro tashkilot. Bugungi kunda dunyodagi nufuzli xalqaro tuzilmaga aylangan Shanxay hamkorlik tashkiloti 2001 yil 15 iyunda Shanxay shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston imzolagan deklaratsiya asosida tashkil etilgan. O'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnihilikni mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar, energetika, transport va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, o'zi qamragan mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash Tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi. ShHT ochiqlik va bloklarga qo'shilmaslik tamoyillariga qat'iy sodiqligi tufayli ishtirokchi mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlab, xalqaro hamkorlikni muvaffaqiyatli tarzda chuqurlashtirmoqda. ShHT tarkibi kengayib, sheriklik munosabatlari rivojlanib bormoqda. Natijada bugungi kunda ShHTning umumiy maydoni 30 million km², ya'ni Yevroosiyoning 60% hududini o'z ichiga oladi. ShHT ulkan iqtisodiy, siyosiy va demografik salohiyatga ega. Xususan, dunyo yalpi ichki mahsulotining 30 foizi va dunyo aholisining 40 foizi ShHTga a'zo mamlakatlarga to'g'ri keladi. Geosiyosiy jihatdan esa "heartland" (dunyo yuragi) deb nomlangan hududning asosiy qismini tashkil qiladi. ShHTga to'qqizta davlat - Xitoy, Pokiston, Rossiya, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston va Eron (2022 yil Samarqand sammitida Eron Islom Respublikasining tashkilotga to'laqonli a'zo sifatidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandum imzolangan) a'zodir. ShHTda kuzatuvchi maqomdagi davlatlar: Afg'oniston, Belarus (2022 yilda Belarus Respublikasiga ShHTning to'laqonli a'zosi maqomini berish bo'yicha jarayonlarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi) va Mo'g'uliston. Muloqot bo'yicha sherik davlatlar:

Armaniston, Ozarbayjon, Kambodja, Nepal, Shri Lanka, Turkiya, Misr, Qatar (2022 yil Samarqand sammitida Misr Arab Respublikasi va Qatar Davlatiga 38 muloqot bo'yicha sheriklar maqomini berish to'g'risidagi memorandumlar imzolangan) va Saudiya Arabistoni. 2022 yil Samarqandda o'tkazilgan ShHTning 22 sammitida Bahrayn Podshohligi, Quvayt Davlati, Maldiv Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari va Myanma Ittifoqi Respublikasiga – muloqot bo'yicha sheriklar maqomini berish bo'yicha protseduralarni boshlash to'g'risida qaror qabulingan. Xalqaro ekspertlarining fikricha, ShHTning geografik qamrovi kengayayotgani samaradorlik, o'zaro bir-birini tushunish va amaliy sa'y-harakatlarni namoyish etayotganligi bilan faoliyatining dolzarbligini yana bir tasdiqlaydi. Tashkilotga a'zo bo'lish istagini bildirgan davlatlar sonining oshishi ShHT harbiy-siyosiy tashkilot bo'lmagani, eng avvalo iqtisodiy birlashma ekanligini ko'rsatadi. Tashkilot formati, shuningdek, global va mintaqaviy masalalarni hal etish imkonini ham beradi. Davlat boshliqlari sammitlariga taklifnoma olganlar: MDH, ASEAN, BMT, EurAzES, AQSh, Turkmaniston. ShHTning eng muhim 3 ta vazifasi 2001 yil 15 iyunda "Terrorizmga, separatizmga hamda ekstremizmga qarshi kurash haqidagi Shanxay konvensiyasi"da qabul qilinib, belgilab berildi:

- ♣ Terrorizmga qarshi birgalikda kurashish;
- ♣ Separatizm (ayirmachilik)ga qarshi kurash;
- ♣ Ekstremizmga qarshi kurash.

Ma'lumki, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonning eng dolzarb muammolarini samarali hal qilishda, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda katta hissa qo'shib kelayotgan nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi. intaqaviy xavfsizlikni kafolatli ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalarining noqonuniy savdosiga qarshi kurashish tashkilotning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

O'tgan 20 yil mobaynida mintaqaviy va xalqaro vaziyatda keskin o'zgarishlar ro'y berayotgan bir sharoitda SHHT o'zini ko'p tomonlama hamkorlikning ta'sirchan mexanizmi sifatida namoyon etmoqda. Qisqa davrda tashkilot salmoqli shartnomaviy-huquqiy bazaga ega bo'ldi, institutsional jihatdan to'laqonli tuzilma sifatida shakllandi, qator tarkibiy organlari tashkil qilinib, ularning barqaror faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ta'kidlash joiz, tashkilot "Shanxay ruhi" negizida tashkil qilingan bo'lib, ushbu tamoyil o'zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, umumiy taraqqiyotga intilish kabi asoskor qoidalarni o'zida muajassam etadi. "Shanxay ruhi" tashkilotga a'zo davlatlarning siyosiy, harbiy va iqtisodiy qudrati har xil o'lchamda bo'lishiga qaramay, ularning barchasi teng va hamjihatligini bildiradi.

Chunonchi, SHHT doirasida barcha qarorlarning konsensus asosida qabul qilinishi tamoyili ham "Shanxay ruhi"ning mazmun-mohiyatini va uning mukammal tuzilma sifatida namoyon etadi. Ushbu tamoyil tashkilotning "o'rta" va "kichik" salohiyatli a'zolariga jahonning qudratli kuch markazlari hisoblangan Xitoy va

Rossiya bilan bir qatorda, SHHT ustuvor yo'nalishlarini belgilashda faol va teng huquqli ishtirok etish imkonini beradi.

Agar SHHTni boshqa mintaqaviy va transmintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan solishtiradigan bo'lsak, u naqadar katta kuch va salohiyatga ega ekanini ko'ramiz. SHHTga a'zo davlatlarning ikkitasi, ya'ni Rossiya va Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari hisoblanadi. Dunyo aholisining deyarli yarmi SHHTga a'zo mamlakatlarda istiqomat qiladi.

Tashkilotning umumiy makoni Yevrosiyo hududining 60 foizini egallaydi. SHHTga a'zo davlatlarning yalpi ichki mahsuloti jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 23 foizini tashkil qiladi.

ShHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlik strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlari, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini yumshatish va oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi hamkorlik aloqalari, shuningdek, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar sammit ishtirokchilarining diqqat markazida bo'ldi. Unda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari bilan birga, kuzatuvchi maqomidagi mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari, xalqaro tashkilotlarning vakillari qatnashgani bu masalalarning naqadar muhim ekanidan dalolat beradi.

2021-2022 yillarda o'tkaziladigan SHHTning sammitiga raislik qilish O'zbekistonga rasman o'tdi. Sammit doirasida sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish, kambag'allikni kamaytirish, turizm sohasida hukumatlararo bitimni ishlab chiqish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi „Yo'l xaritasini qabul qilish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning istiqbolli ijrosi davlatlarning rivojlanishiga, ularning qo'shnichilik aloqalari yanada mustahkamlanishi va diplomatik aloqalarining ravnaq topishining asosiy faktori bo'ladi. Shanxay hamkorlik tashkiloti o'zida yaqin qo'shnichilik orqali hamkorlikda rivojlanishni maqsad qilgan tashkilotlardan biridir. 2021-2022 yillar istiqbolini rejalashtirish maqsadida o'tkaziladigan SHHTning yig'ilishi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning SHHT dagi raisligidagi ustuvor vazifalarini bayon qildi. Ular:

- SHHTning nufuzi va salohiyatini yanada oshirish;
- SHHTning makonida infratuzilmani rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- SHHTning xalqaro axborot xavfsizligi bo'yicha ekspertlar forumini ta'sis qilish;
- SHHTning Ezgu niyat elchisini institutini joriy qilish;
- SHHT ning sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish va bu borada hamkorlikni nazarda tutuvchi markazlarni tuzish, kambag'allikni kamaytirish va oziq-ovqat xavfsizligi sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish, turizm sohasida hukumatlararo bitimni ishlab chiqish yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi „Yo'l xaritasi"ni qabul qilish ko'zda tutilgan.
- SHHTning Transport bog'liqligi strategiyasini qabul qilish;

Ishonchimiz komilki, “ShHT ezgu niyat elchisi” instituti a’zo mamlakatlarning san’at, adabiyot, fan, musiqa va sport sohalaridagi mashhur arboblardan tashkil topib, ular iste’dodi va bor kuch-g’ayratini tashkilotga a’zo davlatlar hamda butun dunyo xalqlarining turmush darajasini oshirishda ShHT harakatlariga nisbatan jamoatchilik xayrixohligini oshirishga safarbar etadi. Dunyoda ishonch va o’zaro bir-birini tushunish taqchilligi sezilayotgan, qarama-qarshiliklar va mojarolar kuzatilayotgan bugungi sharoitda barqarorlik va xavfsizlikka nisbatan ko’plab tahdidlar kuchaymoqda. Iqlim o’zgarishi, suv va tabiiy resurslarning yetishmasligi, pandemiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi inqirozi kabi zamonamiz muammolari barqaror rivojlanish uchun jiddiy xavf tug’dirmoqda. O’zaro ishonch, adolat va hamjihatlikka talab global miqyosda tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan O’zbekiston uchun ochiq va konstruktiv muloqotni davom ettirish har qachongidan ham ko’proq talab etilmoqda. ShHT faoliyati shunday muloqotni amalga oshirish mumkinligini dunyoga namoyon etmoqda. Samarqand qadim-qadimdan Sharqiy Osiyodan to Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq va Yevropagacha bo’lgan makonda yashaydigan xalqlar o’rtasida ma’naviy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy almashuvlarning markazi bo’lib kelgan. Asrlar davomida bu yerda turli sivilizatsiyalar vakillari o’rtasida samarali muloqotning o’ziga xos madaniyati yaralgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алимов Р. ШОС: становление, развитие, перспективы. – Москва: Издательство «Весь мир», 2017.
2. Aris, S. 2009. The Shanghai Cooperation Organisation: Tackling the Three Evils. A Regional Response to Non-Traditional Security Challenges or an Anti-Western Bloc? *Europe-Asia Studies*, 61 (3).
3. Гусаков, Н. Инновационное сотрудничество как одно из стратегических направлений взаимодействия в рамках ШОС / Н. Гусаков, Л. Шкваря. – М.: Издательский дом «Панорама», 2009. – С. 32-37.
- 4 Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН от 1 декабря 2004 года №A/RES/59/48 (пункт 151 повестки дня) «Предоставление Шанхайской организации сотрудничества статуса наблюдателя в Генеральной Ассамблее». Сайт ООН: https://www.un.org/ru/ga/sixth/59/sixth_res.shtml (16.08.2022).
5. Клещева Т. Шанхайская организация сотрудничества как основной орган борьбы с терроризмом в странах АТР // *Право и политика*. – 2012, №1.